

MILLIY MAFKURANING MA'NAVIY ASOSLARINI SHAKLLANTIRILISHIDA TARIXIYLIK VA VORISIYLIK TAMOYILI

O'tayev G'.G', Maxmudov L.Yu. TTA

Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchilari

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada milliy mafkuraning ma'naviy asoslari hamda uning tarixiylik va vorisiylik tamoyillari to'g'risida so'z boradi.

АННОТАЦИЯ

В данной статье говорится о духовных основах национальной идеологии, а также о принципах ее историчности и преемственности.

Har bir millat taraqqiyot sari qadam qo'yar ekan, shu millatni taraqqiyotga yetaklaydigan g'oya va mafkuraga ehtiyoj sezadi. Busiz millat va davlat taraqqiyotga erishmaydi albatta. Mafkura millatni va uning umumiy maqsadlarini birlashtirib turuvchi kuch bo'lib, o'z mohiyatiga ko'ra, ma'naviy va moddiy asoslarga ega bo'ladi. Shuningdek mafkurani ikki turga ajratish mumkin: jamiyat mafkurasi va milliy mafkura. Bu ikkala tur mafkura muxim ahamiyatga ega. Jamiyat mafkurasi umuminsoniy maqsad va ehtiyojlarni, xavfsizlikni, bir so'z bilan aytganda, umumplanetar taraqqiyot hamda xavfsizlikni ifodalaydi. Milliy mafkura ham mohiyatan jamiyat mafkurasiga o'xshash biroq, u bir xalq yoki millatni taraqqiyotga yetaklash bilan birga, umuminsoniy taraqqiyotga ham o'z hissasini qo'shadi. Shu ma'noda g'oya va mafkura millat va jamiyat rivojlanishida asosiy qurol hisoblanadi. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, bugungi kungacha jamiyat va millatning rivojlanishida tarixda turli xil g'oya va mafkuralarni bo'lganligi hamda, bu ikki tushunchani millat taraqqiyotida qanchalik muhim ekanligiga yana bir bor guvoh

bo‘lamiz. Mafkura har bir davrda ma’lum bir maqsad va manfaatlarga xizmat qilib kelgan. Bu antik davr bo‘ladimi, o‘rta asrlardami, uyg‘onish davridami va hokozo. Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, uzoq tarixga ega bo‘lgan o‘zbek davlatchiligi kabi uning mafkurasi ham uzoq tarixga ega. Buni biz yuqoridagi boblarda xalqimizning milliy shakllanish jarayoni davomidagi omillar misolida keltirib o‘tdik. Xalqimizning bugungi mustaqil kunida milliy mafkuramizni tarixiylik tamoyillarini rivojlantirgan holda uning vorisiylik tamoyillarini xalqimiz ongiga singdirish va shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi. Bu o‘z navbatida milliy mafkurani mustahkamlashga, xalqimiz ongida muhim o‘rin egallashiga, hamda milliy taraqqiyotga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Olimlar va tadqiqotchilar milliy g‘oya tushunchasiga ham turli nuqtai nazardan yondoshgan holda bu tushunchaga ta’rif berib, uning jamiyatdagi vazifalari haqida fikrlar bildirishgan. Jumladan rus faylasufi P.Novogorodtsev bu borada shunday deydi: “Oliy insoniylik maqsad-muddaolarining majmui bo‘lgan ijtimoiy ideal jamiyat odamlarini yuksak bunyodkorlik sari boshlaydi”⁵⁹. Bu bilan faylasuf milliy g‘oya har bir sog‘lom jamiyatning ijtimoiy ideali bo‘lishini e’tirof etadi. Bu fikr ko‘pchilikda qiziqish uyg‘otdi va keyinchalik bu ko‘pmillatli Rossiya xalqi uchun milliy g‘oya bo‘la oladi degan to‘xtamga kelindi. Faylasufning yuqoridagi fikrlari ham o‘rinli. Biroq milliy g‘oya jamiyatda odamlarning faqatgina moddiy ehtiyojlarini bir so‘z bilan aytganda, moddiy manfaatlarini himoya qiluvchi yoki ularni amalga oshiruvchi emas balki, shu bilan birga jamiyatda odamlarning ma’naviy hayotini ham yuksaltirishga xizmat qilishi lozim. Agar biz milliy g‘oyani faqatgina ijtimoiy ideal bilan o‘lchaydigan bo‘lsak, unda jamiyatda ma’naviy qashshoqlik yuzaga kelishi mumkin. Shuningdek bunga hozirda bir qancha misollar keltirish mumkin. Xususan bugungi kundagi ayrim g‘arb davlatlari va Amerika jamiyatida hukm surayotgan ma’naviy tubanlik bunga misol bo‘la oladi. Demak milliy g‘oyani amalga oshirishda dastavval ma’naviy muhit shakllantirilishi lozim. Ijtimoiy ideal xalq va millatni farovon hayotga yetaklashi uchun dastlab shu idealning o‘zi ma’naviy asoslarga ega

⁵⁹ Novogorodtsev P. Sotsialnaya ideologiya. 2-oye izdaniye. M.: “Misl”. 1996.str 34.

bo'lishi kerak. G'oya va ideal o'rtasidagi farq asosan amaliyotda ko'rinadi deydi Xitoylik tadqiqotchi Shri Chinmoy. Ya'ni, inson va insoniyat hayotida g'oyalar xalqni, millatni muayyan faoliyatni bajarishga tayyorlovchi ma'naviy sharoit vazifasini o'tasa, ideal shu g'oyalarning amalga oshiruvini bajaradi. Ingliz faylasufi A.Toynbi esa milliy g'oyani shakllanishini tarix bilan bog'liq holda talqin qilib, shunday deydi: "Har bir xalqning muhtasham va o'ziga xos tarixi bor, uni bilish bunyodkorlik sari xalqni birlashtiradi"⁶⁰. A.Toynbining ushbu g'oyasi oxirgi yigirma yillikda ayniqsa keng tarqaldi hamda, ushbu g'oyani o'zlari uchun to'g'ri deb qabul qilgan mamlakatlar nafaqat milliy g'oyani shakllantirishga balki, shu bilan birga o'zlikni anglashga, milliylikni tarannum etishga, o'zini boshqa xalq va millatlar bilan aynanlashtirishga moyil bo'lgan milliy identifikatsiya jarayonini rivojlanishiga ham sabab bo'ldi. Shuningdek bu g'oya bugungi kunda g'arb mamlakatlari uchun birlamchi g'oya bo'lib kelmoqda. Unda nafaqat milliy tarixni, balki jahon tarixini ham chuqur o'rganish bilan dunyo xalqlarining kuchli va zaif tomonlari anglab olinmoqda. Milliy g'oya ingliz olimi K.Popper qarashlarida ochiq jamiyat tushunchasi bilan uyg'unlashadi. Uning fikricha, har qanday jamiyat har bir kishi uchun ochiq bo'lishi kerak va har bir odam qaerda yashagisi kelsa o'sha yerda yashashi lozim. K.Popper inson erkinligini oliy qadriyat sifatida baholaydi biroq, u har bir fuqaroning o'zi yashayotgan jamiyatning qonun va qoidalariga amal qilishi lozimligini e'tiboridan uzoqlashtiradi. Bu bilan olim bugungi kundagi Amerika jamiyatida mavjud bo'lgan modelni o'zgalarga namuna qilishga intiladi. Ma'lumki bugungi kundagi Amerika jamiyatidagi ma'naviy va axloqiy tubanlikni mavjudligini G'arbning eng buyuk tadqiqotchilari ijtimoiy muammo sifatida ko'tarib bong urishmoqda. Xususan bu borada S.Xantington shunday deydi: "Tarixan Amerika o'zligining mohiyati irqiy mansublik, madaniyat (avvalo til va din) va mafkura bilan belgilangan. Irqiy Amerika endi xuddi hech qachon bo'lmaganday yo'q. Madaniy Amerika xatarda. Sovet tajribasi ko'rsatishicha, mafkura irqiy, etnik va madaniy birlikdan mahrum kishilarni birlashtirishga qodir emas. Ha, Robert Kaplan

⁶⁰ A.Toynbi. Ot Vostoka do Zapada. – M.: "Veka". 1999. str 64.

aytganidek: “Amerika – aynan shunday qismatki, u halok bo‘lish uchun yaralgan”, - degan fikrlarining sababi mavjud. Shunday bo‘lsa-da deydi S.Xantington fikrini davom ettirib, alohida jamiyatlar mavjudliklariga kelgan jiddiy tahdidlarga duch kelgan paytda inqirozni orqaga surish va tarqalib ketishni bartaraf etishning choralarini qila olganlar. Bu imkoniyat milliy o‘zlikning, milliy maqsadning va umumiy madaniy boyliklarning mavjudligiga kelib taqaladi”⁶¹. Tadqiqotchi bugungi kundagi Amerika jamiyatida kechayotgan milliy o‘zlikni anglash va milliylik masalalarini to‘g‘ri talqin qilgan. Bu borada Xantingtonning fikrlari o‘rinli bo‘lib, haqiqatdan ham tarixiy tajriba va muayyan belgilarga ega bo‘lgan xalq hamda millat mafkura atrofida birlashishi mumkin. Aksincha, madaniy va etnik birlikka ega bo‘lmagan xalq va millat milliy mafkura atrofida birlasha olmaydi. Xalqimizning uzoq yillik tarixiy tajribasi shuni ko‘rsatadiki, milliy mafkura atrofida birlashish xalqimizning ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma’naviy dunyoqarashida muhim o‘rin egallab kelgan. qarashlariga xos bo‘lgan, ushbu fikrlari Milliy g‘oya mohiyatan ma’naviyatga oid hodisa bo‘lib, u millatning ma’naviy o‘zligini anglashi bilan fundamental bog‘liqdir. Bunga sabab, millatning ma’lum tarixiy jarayonlarni boshdan kechirib, keyinchalik o‘zini o‘nglab olishida, yoki milliy g‘oya va mafkuraga tayangan holda milliy taraqqiyotga erishishida uning ma’naviy o‘zligi muhim rol o‘ynaydi. Masalan millat o‘z ijtimoiy-siyosiy hayotida qaramlik, mustamlakachilik davrini boshdan kechirayotganda uni asrab qoladigan omillar madaniyat, qadriyat, til, an’ana va boshqalar hisoblanadi. Keyinchalik millat milliy mustaqillikka erishgach, ushbu belgilarni anglashi va tiklashi milliy shu bilan birga ma’naviy o‘zligini anglashidir. Shu bois ham xalqimizning boy ma’naviy merosi bugungi mustaqil hayotimizda nafaqat o‘zligimizni anglashimizda balki, milliy mafkurani ma’naviy asoslarini shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq, millatning shakllanishi bilan birga milliy o‘zlikni anglash ham shakllana boradi deydi V.Qo‘chqorov Millatsiz milliy o‘zlikni anglash yo‘q, milliy (ma’naviy) o‘zlikni

⁶¹ S.Xantington. Кто мы? Вызов американской национальной идентичности.-М.: AST, 2004.-s- 230-231.

anglashsiz millatning bo'lishi dargumondir.⁶² Haqiqatdan ham millat shakllanishi davomida va shakllangandan keyin u o'z taraqqiyotida (milliy) ma'naviy asoslarga ega bo'lmasa, bunday millat kelajakka ega emas. Qolaversa, buni bugungi kundagi globallashuv jarayoni ham taqozo etmoqda. Ma'naviyat shunday bir kuchki, u aynan millatning ichki dunyosini ifodalagan holda milliy rivojlanishda asosiy tayanch vazifasini bajaradi. Bugungi kunda ayrim rivojlangan mamlakatlarda milliy g'oya garchand mohiyatan mavjud bo'lsa-da, biroq uning ma'naviy asoslarining mustahkam emasligi uning barqarorligiga putur yetkazmoqda.

Vorisiylik tamoyili jamiyat taraqqiyot davomida turli ijtimoiy tuzumlar, jamiyatdagi har xil tabaqa va qatlamlarning turlicha mafkurasi bo'lishi tabiiy albatta. Yuqorida aytib o'tganimizdek, milliy o'zlikni anglash, milliylik, milliy mafkura, ma'naviyat kabi tushunchalar xalqimizning milliy tarixida, bir so'z bilan aytganda, xalqimizga xos bo'lgan, milliy o'zligida mavjud bo'lgan xususiyatlar hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, vorislik milliy mafkurani ma'naviy asoslarini shakllantirishda, milliy o'zlikni anglashda, milliy identifikatsiyalashda kuchli bo'ladi. U millat vakillarini ajdodlari bilan bog'lab turadi. Ajdodlar yaratgan milliy va ma'naviy boyliklardan avlodlarni bahramand etadi. Bu o'z navbatida milliy o'ziga xoslikning rivojlanishiga va takomillashib borishiga ham ta'sir o'tkazadi.

Shuningdek bugungi kunda mafkurani jamiyat va milliy mafkura kabi turlarga bo'lish mumkin. Insoniyatning dastlabki sivilizatsiyasi umumiy maqsad va manfaatlarni ifodalagan hamma uchun umumiy bo'lgan jamiyat mafkurasiga asoslangan. Keyinchalik xalq va millatlarning shakllanishi hamda taraqqiy etishi davomida faqat bir xalq yoki millatning maqsad va manfaatlarini ifodalagan milliy mafkuralar shakllana boshlaydi. Shu ma'noda ijtimoiy hamkorlikka asoslangan, erkin demokratik jamiyat barpo etishni ko'zlagan davlatlarda milliy mafkura aholining barcha qatlamlarini jipslashtirishga, umummanfaat va yagona maqsad yo'lida birlashishga chorlaydi. Bunday mafkuralarda ziddiyatli jihatlar emas, umuminsoniy tamoyillar kuchayib boradi. Jamiyat taraqqiyotida yangi mafkuralar birdaniga

⁶² V.Qo'chqorov. Milliy o'zlikni anglash va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar. "Akademiya", Toshkent 2007 111 bet.

shakllanmay, balki shakllangan mafkuraning tarixiylik va vorisiyiligi saqlanib qoladi. Bundan tashqari mavkura shakllanishidan oldin dastlab muayayn g'oyalar tizimida yuzaga keladi keyinchalik esa, taraqqiyot davomida ya'ni, odamlarning ijtimoiy hayotida o'zgarishlar paydo bo'lishi bilan u shu odamlarning yoki jamiyatning moddiy kuchiga aylana boradi.

Tarixiylik tamoyili bu tamoyilga xalqimizning milliy shakllanishi davomida muhim rol o'ynagan barcha omillar kiradi. Xususan xalqimizning tarixiy tajribasidagi buyuk davlatchilik an'analari va muayyan mafkura atrofida birlashib, ulkan yutuqlarga erishganligi bunga misol bo'la oladi. Xuddi ana shu milliy o'ziga xoslik ham xalqimizning milliy shakllanish davomida yuzaga kelgan xususiyatlardan hisoblanadi. Bugungi kunda xalqimizning mustaqil hayotida mana shu o'ziga xosligining tarixiy ta'sirchanligi alohida o'rin egallaydi. Chunki, u millatning ma'naviy merosi, ahloqi, dunyoqarashi, mentalitetining muhim in'ikosi sifatida shakllanadi. Shuning uchun ham millat vakillariga uning ta'sir o'tkazish imkoniyati katta. U har bir millat vakilida eng avvalo o'zini anglagan insonga xos xislati bo'lgan o'z millatiga daxldorlik tuyg'ularini shakllantirishdagi ma'naviy omil vazifasini bajaradi.

ADABIYOTLAR

1. K.Shoniyozov O'zbek xalqining shakllanish jarayoni.Toshkent "Universitet" 2007.59 b.
2. Asqarov A. O'zbek xalqining etnik shakllanishi.
3. Madaeva Sh.O Milliy mentalitet va demokratik tafakkur.Falsafa va huquq instituti nashriyoti. Toshkent 2007. 57-58 betlar.
4. Nitshe F. Tak govoril Zaratustra. – M., 1990. S. 142.
5. A.Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi Toshkent. Sharq, 2000 30 bet.
6. O.Qo'shjonov Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va harakatlar. Toshkent, "Adu matbuot konsalt" 2007. 157bet.